

**XALQARO SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA YuK-KUZATUV HUJJATLARINI  
RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**PROGRESS OF DIGITALIZATION OF SHIPPING DOCUMENTS IN THE  
DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TRADE**

**M. Karimjanova,**

Professor of Customs Institute, PhD,

DBQ Bojxona instituti “Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, PhD

**N. Rakhmonova**

Master of the Customs Institute

Bojxona instituti magistranti

**Annotatsiya**

Butun dunyoda Covid-19 pandimeyasi onlayn tarzda ishlash imkoniyatini oshirdi, iqtisodiyotning yanada raqamlashishiga turtki bo’ldi. O’zbekistonda ham barcha sohalarda, shu jumladan bojxona rasmiylashtiruvni jarayonlarida ham raqamlashtirish jadallik bilan rivojlanmoqda. Ushbu tezisda bojxona rasmiylashtiruvni jarayonlarini to’liq raqamlashtirishga doir masalalar ko’rib chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** yuk-kuzatuv hujjatlarini raqamlashtirish, shtamp va muhr qo’yish, “E-tranzit” AAT, invoys, CMGC.

**Аннотация**

Во всём мире пандемия Covid-19 расширила возможности работать онлайн, подтолкнув экономику к дальнейшей цифровизации. В Узбекистане цифровизация стремительно развивается во всех сферах, включая таможня. В данном тезисе рассматриваются вопросы полной цифровизации процессов таможенного оформления.

**Ключевые слова:** цифровизация транспортных документов, проставление штампов, АИС “Е-транзит”, инвойс, СМГС.


**Annotation**

Around the world the Covid-19 pandemic has expanded opportunities to work online, pushing the economy towards further digitalization. Digitalization is rapidly developing in all areas in Uzbekistan, including customs. In this thesis considers the issues of complete digitalization of customs clearance processes.

**Keywords:** digitalization of transport documents, stamping, AIS «E-transit», invoice, CMGC O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6079 son Farmoni bu boradagi islohotlarni davom ettirishning huquqiy asosi bo’ldi. “Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasida iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi belgilangan.

Bugungi kunda logistikada deyarli barcha jarayonlar (tovarni onlayn buyurtma qilish, sotib olish, to'lovlarni to'lash, yetkazib berish va b.) raqamlashgan ya'ni tadbirkor ofisidan yoki uydan chiqmagan holda, o'ziga qulay vaqtida tovar sotib olishi yoki xizmatlardan foydalanishi mumkin. Ko'pgina davlatlar (EI, YeOIH davlatlari) da tovarlarni xalqaro savdosi ham to'liq raqamlashgan. O'zbekistonda ham xalqaro savdo jarayonlarini raqamlashtirish borasida so'nggi yillarda ko'plab islohotlar amalga oshirildi: BYuDni rasmiylashtirish, bojxona organiga yuborish, rasmiylashtiruv jarayonlarini kuzatish, tovarga oid sertifikatlarni olish va boshqalar to'liq raqamlashgan. Ammo, bugungi kunda tashqi savdo yuklariga oid yuk-kuzatuv hujjatlari (yuk-xati, nakladnoy, invoys va b.) qog'oz nusxada rasmiylashtirilmoxda va ularning elektron nusxalari bojxona va boshqa nazorat qiluvchi organlarga taqdim etiladi. Bugungi jadal iqtisodiy jarayonlar mamlakatimizda xalqaro tashuvlarda foydalaniladigan yuk-kuzatuv hujjatlari (invoys, CMTC, CMR va b.)ni raqamlashtirishni taqozo etmoqda.

BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (Economic and Social Commission for Asia and the Pacific - ESCAP) ekspertlari tomonidan 2019-yilda O'zbekistonning transchegaraviy qog'ozsiz savdoga tayyorligi baholangan. Unga ko'ra, xalqaro ekspertlar tomonidan O'zbekistonda eksport-import jarayonlarining raqamlashtiganligi 60 % baholangan (1-rasm).



1-расм. Ўзбекистон Республикасининг трансчегаравий қоғозсиз савдога тайёрлиги бўйича кўрсаткич таҳлили (2019-yil)

Izoh: Yuqori ball – 100 ball

ESCAP ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistonda transchegaraviy qog'ozsiz savdoni to'liq amaliyotga joriy qilinishi uchun quyidagi

3 yo'nalishda ishlarni jonlantirish kerak:

1. Elektron bojxona va "Yagona darcha" milliy tizimlarida barcha nazorat qiluvchi organlar bilan integratsiya qilingan bo'lishi kerak;
2. Ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan axborot texnologiyalarni uzluksiz ishlab turishini ta'minlash;

3. O'zbekiston transchegaraviy qog'ozsiz savdoni rivojlantirish borasida tashabbus ko'rsatishni davom ettirishi va buning natijasida birgalikdagi ko'rlik, natijalarni elektron tarzda almashish kabilarga erishish;

Shuningdek, Jahan bojxona tashkiloti (keyingi o'rinnlarda JBT) 2022-yilni ma'lumotlar madaniyatini o'zlashtirish va ma'lumotlar ekotizimini qurish orqali bojxonaning raqamli transformatsiyasini kengaytirishga bag'ishladi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 17-fevralda "Bojxona tizimini yanada isloh qilish va korrupsiyanidan holi sohaga aylantirish masalalari" bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda temir yo'l, avia va avtomobil transporti orqali amalga oshirilayotgan eksport va import jarayonlaridagi barcha qog'oz hujjatlardan to'liq voz kechish, ularni raqamlashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'murchilagini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-122-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da import tovarlarining yuk-kuzatuv hujjatlariga bojxona xodimlari tomonidan muhr va shtamp qo'yish amaliyotini raqamlashtirish orqali bekor qilish belgilangan.

Ushbu Farmon bilan eksport yo'nalishidagi temir yo'l vagonlarini elektron buyurtma qilish va import tovarlari hujjatlarini elektron qabul qilish imkoniyatlarini yaratish maqsadida "O'zbekiston temir yo'llari" AJning axborot tizimlarini "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga integratsiya qilish rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, ushbu rejalar eksportda temir yo'llarda tashiladigan tovarlarga oid yuk-kuzatuv hujjatlarni raqamlashtirish va qog'oz bilan rasmiylashtiriladigan hujjatlardan voz kechish, shuningdek importda tashuvchi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumot ga yuk-kuzatuv hujjatlarining elektron nusxalarini ilova qilish orqali erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning Yagona oyna axborot tizimida temir yo'l vagonlarini onlayn buyurtma qilish va onlayn tarzda naklandoy (SMGS) shakllantirish imkoniyati mavjud. Ammo ushbu imkoniyatdan bugungi kunda asosan O'zbekiston ichidagi tashuvlar uchun q'llanilmoqda.

Tadqiqot davomida mamlakatimizdagi yirik eksportyor tashkilot "Navoiyazot" OAJ o'rganildi. Unga ko'ra, bugungi kunda ushbu tashkilot tomonidan ichki tashuvlarda yiliga o'rtacha 12 000 ta vagonda yuklar tashilib, hozirda ichki tashuvlar uchun "O'zbekiston temir yo'llari" AJning yagona oyna AAT orqali elektron SMGS shakllantirilmoqda. Ushbu tashkilot tomonidan yiliga o'rtacha ichki tashuvlar uchun 12 000 ta, eksport uchun 7 500 ta CMTC rasmiylashtirilishini, 1 dona qog'oz nusxadagi CMTCning narhi o'rtacha

15 000 so'mni tashkil etishini inobatga olsak, ushbu tashkilot yuklarini tashishga qog'oz naklandoy uchun yiliga o'rtacha 300 mln. so'm mablag' harajat qilinadi.

Bundan tashqari CMTCda ko'p yo'l qo'yiladigan hatoliklar (texnik va orfografik noto'g'ri to'ldirish)ni qog'oz nakladnoyga nisbatan elektron SMGSda bir muncha oson va tezroq tuzatish imkoniyati yaratiladi. *Huquqiy asos:* CMTC kelishuvining 15-moddasida qog'oz yoki elektron bo'lishi mumkinligi belgilangan.

Elektron hisobvaraq faktura (invoys)ni joriy etish yuzasidan, xalqaro tashqi savdoda tovar va transport vositalarinin bojxona rasmiylashtirushi, shuningdek, ular ustidan bojxona nazorati ta'minlash, bojxona to'lovlarini undirish, ishonchli bojxona statistikasini yuritish hamda xavfni

boshqarish tizimini qo'llashda invoys hujjati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat universal xarakterga ega bo'lib, xalqaro yuklarni tashish bo'yicha barcha transport turlariga asosiy yuk kuzatuv hujjati sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjatni shakllantirish borasida bugungi kunda yagona standart shaklga ega emasligi o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

### **Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi:**

1. Chegara bojxona postlarida nazorat qiluvchi organlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumot almashish tizimini jonlantirish.
2. Tashqi savdoda asosiy hamkor davlatlar bilan elektron hujjatlarni almashish tartibini yo'lga qo'yish;

### **Eksportda**

3. Elektron hisobvaraq-faktura (invoys)ni joriy etish
4. Xalqaro tashuvlarda foydalilaniladigan barcha yuk-kuzatuv hujjatlarini "Yagona darcha" AAT orqali invoys asosida elektron shakllantirish imkonini yaratish.
5. Temir yo'l transportida tashiladigan tovarlarga oid yuk-kuzatuv hujjatlarini raqamlashtirish (elektron CMGC) tizimiga o'tish.

### **Importda:**

6. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari to'g'risida tashuvchi tomonidan bojxona organiga taqdim etiladigan dastlabki elektron shakldagi axborotga yuk-kuzatuv hujjatlarining elektron nussxalarini ilova qilish imkoniyatini yaratish.

### **Fikrimizcha, yuqoridagi takliflarni amaliyatga joriy etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:**

- TIF qatnashchisi tomonidan yagona tizim orqali (bir marotaba!) yuk-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirish, shu jumladan vagon va konteynerlarni buyurtma qilishi va tegishli nazorat qiluvchi organlar (bojxona, sertifikatlash organlari, transport kompaniyalari va b.)ga yuborishi va onlayn tarzda jarayonlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- qog'oz hujjatlarni sotib olish va saqlash harajatlari kamayadi;
- hujjatlarni elektron tarzda shakllantirishda o'rnatilgan logistik nazorat natijasida texnik va orfografik hatoliklar oldi olinadi;
- elektron hujjatlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanganligi sababli, unga begona shaxslar tomonidan qo'shimcha va o'zgartirishlar kitirish imkoniyati cheklanadi;
- tovarlarni bojxona rasmiylashtirushi hamda bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarining bojxona nazorati bo'yicha sifatli va tez rasmiylashtirushi amalga oshadi, tirbandliklar oldi olinadi hamda bojxona tizimi faoliyati samaradorligi ortishiga erishiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Соглашение о Международном железнодорожном грузовом сообщении (СМГС) от 01 ноября 1951 - [docs.cntd.ru](http://docs.cntd.ru)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi;

3. O‘zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoyev. “Bojxona tizimini yanada isloh qilish va korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish masalalari” bo‘yicha yig‘ilishi. 2020-yil 17-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’murchilagini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-sonli Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga keladigan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirishda bojxona tartibotlarini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 762-sonli qarori
6. A.Suyunov “Bojxona ma’muriyatichiliği” o‘quv qo’llanma, “Lesson press” Toshkent – 2021
7. UN ESCAP “Readiness Assessment for Cross-Border Paperless Trade: UZBEKISTAN”, Bangkok, Thailand Copyright © United Nations 2019, 93 p
8. <https://nonews.co/directory/lists/countries/e-government>